

Qutlov

✘ Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish" kafedrasida dotsenti Yunusov Rustem Fayikovich 60 yoshga to'ldi. Yunusov Rustem Fayikovich 1959 yil 13 noyabr Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanida tug'ilgan. Rustem Fayikovich o'zining hurmati va ko'p yillik mehnati bilan Institutda jamoasi va talabalar orasida hurmat qozongan. Tabriklash uchun Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor R.Choriev kelib, Rustem Fayikovichni tabrikladi va institut jamoasi hamda kasaba uyushmasi nomidan sovg'a topshirildi. Tabriklash uchun QSXET fakulteti dekani v.v.b. A.Berdishev, "ET va EYF" kafedrasida professori A.Radjabov, dotsent M.Ibragimov, "TJIAB" kafedrasida mudiri professor R.Gazieva, "E va M" kafedrasida mudiri dotsent R.Baratov, "ET va QTEM" kafedrasida professori Sh.Muzaffarovlar o'zlarining tabriklari va sovg'alari bilan ishtirok etdi. Rustem Fayikovichga har doim sog'-salomatlik, oilaviy xotirjamlik tilab qolamiz.

Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov